

**2022/2023-o‘quv yili uchun umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida  
“Yangi O‘zbekistonda el aziz, inson aziz!” shiori ostida tashkil etiladigan  
“Birinchi qo‘ng‘iroq” tadbirlarini o‘tkazish bo‘yicha**  
**TAVSIYALAR**

**“Yangi O‘zbekiston – maktab ostonasidan,  
ta’lim-tarbiyadan boshlanadi”  
Sh.Mirziyoyev**

Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida “Yangi O‘zbekistonda el aziz, inson aziz!” shiori ostidagi “Birinchi qo‘ng‘iroq” tadbirlari O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 1-avgustdagi PQ-340-sonli “O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining o‘ttiz bir yillik bayramiga tayyorgarlik ko‘rish va uni yuqori saviyada o‘tkazish to‘g‘risida”gi qaroriga muvofiq tashkil etiladi.

“Mustaqillik darslari” barcha umumta’lim muassasalarida maktab direktori, maktab direktorining ma’naviy-ma’rifiy ishlari bo‘yicha o‘rinbosari, tarix, ona tili va adabiyoti fanlari o‘qituvchilari hamda sinf rahbarlari tomonidan joriy o‘quv yilning birinchi o‘qish kuni ertalabki soat 08:30da **“Yangi O‘zbekistonda el aziz, inson aziz!”** shiori ostida boshlanadi;

“Mustaqillik darslari” O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 1-avgustda qabul qilgan PQ-340-sonli “O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining o‘ttiz bir yillik bayramiga tayyorgarlik ko‘rish va uni yuqori saviyada o‘tkazish to‘g‘risida”gi qarorining ijrosi va unda e’lon qilingan **“Yangi O‘zbekistonda el aziz, inson aziz!”** shiori ostida nishonlanishi ma’lum qilindi;

Maktab hududidagi maydon mustaqillik bayrami kayfiyatida shodiyona tarzda “Birinchi qo‘ng‘iroq” va Mustaqillikning o‘ttiz bir yilligiga bag‘ishlangan **“Yangi O‘zbekistonda el aziz, inson aziz!”** shioriga monand tarzda bezatiladi (bunda maktab imkoniyatidan kelib chiqqan holda sahma va uning atrofini bayramona bezaklar bilan jihozlanishi tavsiya etiladi);

“Birinchi qo‘ng‘iroq” va bayram tadbirlarining maktab hovlisi, bog‘ida yoki boshqa soya-salqin ochiq maydonlarida o‘tkazish, maktab hududini talab darajasida jihozlangan, bayram marosimi jarayonida sanitariya-gigiyena va tozalik talablariga qat’iy amal qilingan, tadbirni o‘tkazish jarayonida yong‘in va texnika xavfsizligiga jiddiy e’tibor bergen holda tashkil etiladi;

Bayram tadbirida o‘quvchilarning asosiy e’tibori davlat mustaqilligini qo‘lga kiritish, mustaqillikni mustahkamlash uchun amalga oshirilgan chora-tadbirlar jarayoniga qaratiladi. Xususan, 1990-yil 20-iyunda “Mustaqillik Deklaratsiyasi” va 1991-yil 31-avgustda “O‘zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi asoslari to‘g‘risida”gi Qonunining qabul qilinishi, ana shu huquqiy asoslarga tayanib O‘zbekiston Respublikasi suveren demokratik davlat sifatida mustaqil ichki va tashqi siyosatini yurita boshlaganligiga oid tarixiy ma’lumotlar beriladi, o‘scha davrda qabul qilingan davlat ramzları – O‘zbekiston Respublikasining bayrog‘i, Madhiyasi, Gerbi to‘g‘risida qisqacha ma’lumotlar beriladi. Shuningdek, yurtimizda so‘nggi besh yil ichida Prezident Shavkat Mirziyoyevning tashabbuslari va uning boshchiligidagi

islohotlar natijasida erishilgan yutuqlar, davlat va jamiyatni rivojlanish odimlari, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy sohalardagi, jumladan, ta'lim tizimidagi islohotlar yakunlari to'g'risida aniq raqamlar va dalillar vositasida o'quvchilar tasavvuri boyitiladi.

*Bunda:*

**Quyidagi sohalarining rivojlanish ko'rsatkichlari va Vatanimizdagi o'zgarishlar misol tariqasida keltiriladi:**

O'zbekistonda inson huquq va erkinliklari, diniy erkinlik va OAV erkinligi sohasidagi tub o'zgarishlar, iqtisodiy-ijtimoiy va siyosiy islohotlar natijalari, xalq farovonligining o'sish sur'atlari, yurtimizdagi obodonchilik, mulkdorlar sinfining shakllanishi, mamlakat sanoati va qishloq xo'jaligi va klasterlarga zamonaviy texnologiyalarni joriy etilish to'g'risida axborotlar beriladi;

Yangi O'zbekiston va Uchinchi Rennesans poydevorini qurish islohotlari mazmun mohiyati to'g'risida ma'lumotlar beriladi;

O'zbekistonni Markaziy Osiyo davlatlari bilan hamkorligi va iqtisodiy integratsiyasining boshlanishi va rivojlanishi, O'zbekiston davlatining butun dunyoga ochilishiga oid axborotlar beriladi;

Uchinchi Rennesans poydevorini qurishning tarkibiy qismi sifatida mamlakatda uzlusiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish yo'lini davom ettirish, sifatlari zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini kengaytirish, o'rta ta'limni mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga muvofiq moslashtirish, yuqori malakali kadrlar tayyorlashga oid davlat siyosatiga doir ko'rsatkichlar o'quvchilarga taqdim etiladi;

Yangi, zamonaviy, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan jihozlangan ta'lim muassasalarini qurish, rekonstruksiya qilish, kapital ta'mirlash, ularni zamonaviy o'quv-laboratoriya uskunalari va o'quv-metodik qo'llanmalar bilan jihozlash asosida milliy ta'lim tizimini rivojlantirish, shuningdek, ularning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash asosidagi yangi o'zgarishlar sur'atlariga oid axborotlar berish;

Maktabgacha ta'lim muassasalarini bolalarni qamrab olish imkoniyatlarini kengaytirish, ularda bolalarning har tomonlama intellektual, estetik va jismoniy rivojlanishi uchun shart-sharoitlar tayyorlash, bu sohada pedagog va mutaxassislarning malakalari darajasini oshirish jarayonlari bilan tanishtirish; Umumiy o'rta ta'lim sifatini tubdan oshirish, chet tillar, informatika hamda matematika, fizika, kimyo, biologiya kabi boshqa muhim va talab yuqori bo'lgan fanlarni chuqurlashtirilgan tarzda o'rganishini tashkil etish borasidagi o'zgarishlarga doir ma'lumotlar berish;

Bolalarni sport bilan ommaviy tarzda shug'ullanishga, ularni musiqa hamda san'atga jalb qilish maqsadida yangi bolalar sporti obyektlarini, bolalar musiqa va san'at maktabalarini qurishni davom ettirish, bu sohada ishlab turgan muassasalarini rekonstruksiya qilishiga oid axborotlar berish;

Kasb-hunar kollejlari o'quvchilariga beriladigan kasb-hunarlarni bozor iqtisodiyoti va ish beruvchilarning ehtiyojlaridan kelib chiqib zamonaviy mutaxassislar tayyorlashga o'tish va bitiruvchilarni ishga joylashtirishga muhim ahamiyat berilishi to'g'risida axborotlar berish;

Ta'lim berish sifatini baholashning xalqaro standartlari va indekslarini joriy etish asosida oliy ta'lim muassasalarida ta'lim berishning sifati hamda samaradorligini

oshirish, oliv ta'lim muassasalariga qabul kvotalarini bosqichma-bosqich oshirib borishga oid ma'lumotlar berish;

Ilmiy-tadqiqot va innovatsiyalarga doir faoliyatlarni rag'batlantirish, ilmiy va innovatsiyaviy yutuqlarni amaliyotga joriy etishning samarali mexanizmlarini yaratish, oliv o'quv yurtlari va ilmiy-tadqiqot institutlari huzurida ixtisoslashtirilgan ilmiy-eksperimental laboratoriylar, yuqori texnologiya markazlari va texnoparklarni tashkil etishni davom etayotganligiga doir axborotlar beriladi.

**Yoshlarga oid davlat siyosatining quyidagi asosiy yo'nalishlarida amalga oshirish uchun yaratilayotgan shart-sharoitlar bilan o'quvchilar tanishtiriladi:**

yoshlarning ma'naviy, intellektual, jismoniy va axloqiy jihatdan kamol topishiga ko'maklashish;

yoshlar uchun ochiq va sifatli ta'limni ta'minlash;

yoshlarni ishga joylashtirish va ularning bandligi uchun shart-sharoitlar yaratish;

yoshlarni vatanparvarlik, fuqarolik tuyg'usi, bag'rikenglik, qonunlarga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida, zararli ta'sirlar va oqimlarga qarshi tura oladigan, hayotga bo'lgan qat'iy ishonch va qarashlarga ega qilib tarbiyalash;

yoshlarni axloqiy negizlarni buzishga olib keladigan xatti-harakatlardan, zo'ravonlik va shafqatsizlik g'oyalaridan himoya qilish;

yoshlarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyati darajasini yuksaltirish;

iqtidorli va iste'dodli yoshlarni qo'llab-quvvatlash hamda rag'batlantirish;

yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish;

yoshlarda sog'lom turmush tarziga intilishni shakllantirish, shuningdek, yoshlarning bo'sh vaqlarini mazmunli tashkil etish va yoshlar sportini ommaviy rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish;

yosh oilalarni ma'naviy va moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlash, ular uchun munosib uy-joy va ijtimoiy-maishiy sharoitlarni yaratish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar tizimini amalga oshirish;

yoshlarning huquqlari va erkinliklarini ro'yobga chiqarish sohasidagi faoliyatni amalga oshiruvchi xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni rivojlantirish.

**2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasining 37-50-maqсадларida belgilangan quyidagi vazifalar bilan o'qituvchilar va o'quvchilar jamoalarini tanishtirish. Xususan:**

har bir fuqaroga davlat hisobidan aniq kasb-hunarga o'qish imkoniyatini yaratish, kasbga o'qitish ko'lamenti 2 baravar oshirib, jami 1 million nafar ishsiz fuqaroni kasb-hunarlarga o'qitish va bu jarayonda nodavlat ta'lim muassasalarining ishtirokini 30 foizga yetkazish;

kasbga o'qitish ko'lamenti 2 baravarga oshirish, jami 1 million nafar ishsiz fuqarolarni kasb-hunarga o'qitish;

umumta'lim maktablarining kasb o'rganish istagidagi bitiruvchilarini davlat tomonidan kamida bir kasbni egallashiga ko'maklashuvchi tizimni joriy etish; maktabgacha ta'limning qamrov darajasini hozirgi **67** foizdan kamida **80** foizga yetkazish;

2022/2023-yillarda 6 yoshli bolalarni maktabgacha tayyorlov tizimi bilan qamrab olish darajasini 90 foizga, 2024/2025-o'quv yili yakuniga qadar **100** foizga yetkazish;

maktabgacha ta’lim tizimiga xususiy sektor mablag‘larini jalb qilish orqali 7 mingdan ziyod yangi nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarini tashkil etish;

maktablarni rivojlantirish milliy dasturini joriy etish orqali xalq ta’limi tizimida qo’shimcha 1,2 million o‘quvchi o‘rni yaratish;

yangi maktablar qurish, xususiy maktablarni ko‘paytirish, ta’lim sifatini oshirishni nazarda tutuvchi milliy dasturni ishlab chiqish va amalga oshirish, o‘quv o‘rinlari sonini 2026-yil yakuniga qadar 6,4 milliongacha yetkazish;

nodavlat ta’lim xizmatlari ko‘rsatuvchi tashkilotlarga sharoit va imkoniyatlarni kengaytirish orqali ularning ulushini 2026-yilda 8 foizga, shu jumladan, 2022-yilda 3 foizga oshirish;

yoshlarni san’at dunyosiga oshno etish, kompyuter va IT texnologiyalari sohasida bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishlari uchun zarur jihozlar bilan ta’minlangan 100 mingdan ortiq bepul to‘garaklar faoliyatini yo‘lga qo‘yish; chekka hududlarda maktab hamda maktabgacha ta’lim muassasalariga transport qatnovini yo‘lga qo‘yish;

2026-yilga qadar o‘quv dasturlari va darsliklarni ilg‘or xorijiy tajriba asosida to‘la qayta ko‘rib chiqib, amalda joriy etish;

milliy o‘quv dasturiga asosan 2026-yilga qadar 699 nomdagi, shu jumladan, 2022-yilda 296 nomdagi yangi darsliklar, mashq daftarlari, o‘qituvchi metodik kitoblari hamda mobil ilovalarni yaratish;

milliy o‘quv dasturi bo‘yicha yangi metodikalarga o‘qituvchilarni o‘qitish maqsadida elektron malaka oshirish platformasi uchun 2026-yilga qadar jami 769 ta videodars yaratish;

umumta’lim maktablarida darslik va o‘quv-metodik majmualarini tajriba-sinovdan hamda chet ellik mutaxassislar ishtirokida ekspertizadan o‘tkazish tizimini joriy etish;

malakali o‘qituvchilarning oylik maoshlarini bosqichma-bosqich 1000 AQSh dollari ekvivalentiga yetkazish.

Jahonning turli nuqtalarida urushlar davom etayotganligiga doir misollar keltirgan holda O‘zbekistonda jamiyat tinchlik, osoyishtalik bilan yashayotgani, davlat tomonidan inson qadrini ulug‘lashga oid chora-tadbirlar amalga oshirilayotganligi to‘g‘risida axborotlar beriladi.

Hozirgi O‘zbekiston davlatining ijtimoiy siyosati asosida mehnat faxriylari, keksa avlod vakillarini qo‘llab-quvvatlash, “Temir daftar”, “Ayollar daftari”, “Yoshlar daftari” kabi davlatning ijtimoiy ko‘maklari to‘g‘risida axborotlar beriladi (Bunda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Moddiy yordam va ko‘makka muhtoj oilalarini, xotin-qizlar va yoshlarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha qo’shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 2021-yil 28-aprelda qabul qilingan, 250-sonli qaror mazmunidan kelib chiqiladi).

Mazkur qarorga binoan:

- “Temir daftar”ning yuritilishi bo‘yicha Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi;
- “Ayollar daftari” yuritilishi bo‘yicha Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligi;
- “Yoshlar daftari” yuritilishi bo‘yicha Yoshlar ishlari agentligi mas’ul hisoblanadi.

“Birinchi qo‘ng“iroq” tadbirlariga faxriy o‘qituvchilar, mahalladagi mehnat faxriylari, o‘quvchilarning ota-onalari, kasaba uyushmasi, yoshlar ittifoqi mahalliy

tashkiloti vakillari, mahalla fuqarolar yig‘inlari raislari, mahalladagi hokim yorlamchisi, yoshlар yetakchisi va boshqa hamkor tashkilotlar vakillari taklif etiladi. Tadbir jarayonida o‘quvchilarga bayram tabrigi va yaxshi tilaklar bildiriladi.

Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining 31 yillik bayramiga bag‘ishlangan marosimdagи nutqidan foydalanishingiz tavsiya etiladi.

***“Tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat,  
yo saodat – yo falokat masalasidir”.***

**A.Avlonyi**

**O‘zbekiston Respublikasi Davlat mustaqilligining o‘ttiz bir yillik bayrami  
munosabati bilan tashkil etiladigan “Yangi O‘zbekistonda el aziz, inson aziz!”  
mavzusidagi (“Birinchi qo‘ng‘iroq”) ma’naviy-ma’rifiy tadbirning  
NAMUNAVIY SSENARIYSI**

***“Maktab ta’limini rivojlantirish buyuk umummiliy  
maqsadga, umumxalq harakatiga aylanishi zarur”***

“Birinchi qo‘ng‘iroq” tadbiri ta’lim muassasasining rahbari boshchiligidan, ma’nnaviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha direktor o‘rinbosari, o‘qituvchi-murabbiylar, yoshlari yetakchisi tomonidan rejalashtiriladi va namunaviy ssenariy asosida maktab ssenariysi ishlab chiqilib tasdiqlanadi.

Tadbir ishtiroychilar (2 nafar boshlovchi va ishtiroychi o‘quvchilar) Vatanni madh etuvchi qo‘sish yoki musiqa sadolari ostida sahnaga tashrif buyurishadi.

1-boshlovchi: Assalomu alaykum mehri daryo ustozlar va qadrli mehmonlar!

2-boshlovchi: Assalomu alaykum aziz o‘quvchilar. Sizlarni davlatimiz mustaqilligining 31 yilligi, shuningdek, yangi o‘quv yilining boshlanish darakchisi - “Birinchi qo‘ng‘iroq” bilan chin dildan tabriklayman.

Butun jumlai jahondagi insoniyat e’tirof etgan dunyo buyuk mutafakkir bobolarimiz – bu Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Abu Rayhon Beruniy, Sohibqiron Amir Temur, Mirzo Ulug‘bek, Alisher Navoiy, Bobur Mirzo va boshqa ulug‘ ajodolaramizning barchasi yoshlik chog‘larida ustozlar ta’limini olganlar, ular mehri bilan sug‘orilganlar.

Xalqimizda ajdodlardan meros bo‘lib qolgan ibratli udum bor. Har qanday inson qaysi sohada, qaysi bir kasb-hunarni egallashda kimdir saboq oladi, shogirdlik davrida saboq olib, o‘z kasbi ustasiga aylanadi, mustaqil hayotga kirish arafasida albatta ustozining duoyi fotihasini oladi.

Kimki ustoz duosini olsa, u albatta yuksaladi, kamolga erishadi.

Shuning uchun ham Siz, aziz o‘qituvchilar, ustozlarimiz dunyodagi eng ezgu va olijanob kasb egalaridirlar, desak, bu ayni haqiqatdir.

1-boshlovchi: Assalom ona yurt tonglar o‘lkasi  
Ta’rif, tavsifingning yo‘q nihoyasi.

2-boshlovchi: Senga bag‘ishlanur muqaddas qo‘sish  
Bu o‘zbek elining o‘z madhiyasi.

(So‘ng O‘zbekiston Respublikasining davlat madhiyasi yangraydi.)

1-boshlovchi: Azizlar, tadbirni ochib berish uchun so‘zni maktabimiz direktori \_\_\_\_\_ga beramiz. Marhamat.

(Maktab direktorining kirish so‘zi va bayram tabrigi – 5 daqiqa)

**Maktab direktori:** Assalomu alaykum, aziz mehmonlar, hurmatli ustozlar va qadrli o‘quvchilar. Barchangizga Mustaqillik va bilimlar bayrami muborak bo‘lsin. Biz bugun O‘zbekiston Respublikasi Mustaqilligining 31 yilligini yangidan-yangi zafarlar bilan, ko‘tarinki ruxda, musaffo osmon ostida, bag‘ri butunlikda kutib olmoqdamiz. Albatta, bu mustaqillik va tinchlik nashidasidir.

Azizlar, mamlakatimizda olib borilayotgan demokratik yangilanishning bugungi bosqichidagi eng muhim yo‘nalishlardan biri, bu – qonun ustuvorligi va qonuniylikni mustahkamlash, shaxs huquqi va manfaatlarini ishonchli

himoya qilishga qaratilgan sud-huquq tizimini izchil demokratlashtirish va liberallashtirishdan iboratdir.

Mazkur jarayon ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, madaniy va boshqa sohalarda keng qamrovli, tizimli va bosqichma-bosqich amalga oshirilayotgan islohotlarda o‘z ifodasini topadi. Ushbu islohotlar natijasida jamiyatda oila institutining o‘rni va nufuzini yuksaltirish hamda shaxs, ayniqsa, yoshlar hayoti va sog‘ligini muhofaza etishga qaratilgan ishlar davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilab olindi.

Yoshlarning jamiyatda tutgan o‘rni va ishtirokini yanada oshirish, band bo‘lman yoshlarga moddiy va ma’naviy jihatdan yordam berish tizimini amalga oshirish, yoshlarning huquqiy, ijtimoiy, ma’naviy-axloqiy manfaatlarini yaxshilash hamda ularni qo‘llab-quvvatlashni kuchaytirish borasidagi qonun hujjatlari takomillashtirilib borilmoqda.

Bugun xalqimizning tinch-osoyishta hayoti va ertangi kunga bo‘lgan ishonchining negizida Konstitutsiyamizda belgilangan tamoyil va huquqiy me’yorlar yotganligini barchamiz tushunib yetdik. Milliy davlatchiligidan chuoqur ildizlari va dunyo mamlakatlarining konstitutsionalizm amaliyotini joriy etishdagi ilg‘or tajribasiga asoslangan holda rivojlanayotganligiga ham mana qariyb o‘ttiz yil bo‘ldi.

Fuqarolarimizning bugungi tinch-totuv hayoti va yurtimizda tarkib topgan barqarorlikni hech kim inkor eta olmaydi va har birimiz uni qadrlashimiz hamda asrashimiz darkor.

Bu vazifalarni amalga oshirishda ota-onalarning mas’ulyatini oshirish, sinf rahbarlari bilan hamkorlikni yanada mustahkamlash, mahalla faollari bilan doimiy ravishda ish olib borish zarur va muhimdir. Bu yo‘lda barchangizga kuch-g‘ayrat, sog‘liq va salomatlik tilab, yana bir bor barchangizni yangi o‘quv yili bilan muborakbod etaman.

2-boshlovchi: Bu dunyoda jannatmonand yerlar bisyor,  
Bu dunyoda oq-u qaro ellar bisyor,  
Ammo yo‘qdir bu dunyoda sendek diyor,  
Jonim ichra jonimdursan, O‘zbekiston.  
Tuprog‘ingda ajdodlarim izi qolgan,  
Bobolarim terlarining tuzi qolgan,  
Har gardida momolarim ko‘zi qolgan  
Jonim ichra jonimdursan, O‘zbekiston.

1-boshlovchi: Xa, xassos va donishmand shoirlarimiz Vatanga atab qanchalar qasida, she’r, dostonlar bitmasin, baribir kamdir. Serquyosh Vatanimizning yeri oltin, havosi beg‘ubor, xalqi ulug‘vordir. Shu sababli tuprog‘i serhosil, mevalari asaldek shirindir.

2-boshlovchi: Yurtimiz 1991-yil 31-avgustda o‘zining mustaqil davlat ekanligini e’lon qildi va 1-sentabr “Mustaqillik kuni” deb e’lon qilindi.

Yurtimiz mustaqillikka erishgandan so‘ng biz o‘zligimizni, milliy qadriyatlarimizni, milliy ma’naviyatimizni teran anglay boshladik. O‘zbek nomining shon-u shavkatni, g‘ururi dunyoga tanildi.

1-boshlovchi:

Beshigimda allalagan onamsan o‘zing,  
Qahratonda quchoq ochgan xonamsan o‘zing,  
Qo‘sish ‘imda sado bo‘lgan nolamsan o‘zing,  
Beshikdan to tobutgacha otamsan, Vatan,  
Eshigimda ostonasan, onamsan, Vatan!

Jannatning o‘zidir sening makoning,  
Sen uchun jonini berar o‘g‘loning,  
Doim musaffodir, tinchdir osmoning,  
Quchog‘ingda sherdek yashayman Vatan!

Mustaqillik! Qutlayman seni,  
Bor san’atim, bayotim bilan.  
Mustaqillik! Asrayman seni,  
Kerak bo‘lsa, hayotim bilan.

Kimlarningdir ko‘kragida tumor bo‘lding,  
Kimlarningdir kiprigida g‘ubor bo‘lding.  
Gohida mard bir o‘g‘longa humor bo‘lding  
Sen azizsan, muqaddassan, ey sajdagoh  
O‘zbekiston, ota makon, ona tuproq!

Asl farzand merosiga posbon bo‘lgay  
Ozod elning orzulari osmon bo‘lgay  
Bobolarim ismin aytsam doston bo‘lgay  
Sen azizsan, muqaddassan, ey sajdagoh  
O‘zbekiston, ota makan, ona tuproq!

2-boshlovchi: Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev rahbarligida mamlakatimizda yoshlarga yaratilayotgan imkoniyatlar tufayli bugungi kunning yoshlari har jahhada, xususan, xalqaro sport musobaqalarida, fan olimpiadalarida, musiqa va san’at tanlovlari sovrinli o‘rirlarni egallamoqdalar, o‘zi istagan oliygohlarning talabalariga aylanishmoqda.

Yana bitta yorqin misol: 2022-yil 11-avgustda O‘zbekiston milliy jamoasi Hindistonning Chennay shahrida o‘tkazilgan shaxmat olimpiadasida birinchi o‘rinni egallaganligi butun dunyoga e’lon qilindi. 44-Butunjahon shaxmat olimpiadasi g‘olibiga aylangan O‘zbekiston terma jamoasining erkaklar jamoasi Butunjahon shaxmat olimpiadasining hal qiluvchi turida Niderlandiyaga qarshi bahs olib bordi va 2,5:1,5 hisobida jahonda birinchi o‘rinni egalladi. Bu esa yurtimizni dunyoga yanada mashhur qildi. Ular bilan biz yoshlar faxrlanamiz, g‘ururlanamiz. Ularni ismi va sharifi quyidagicha: 1) Abdusattorov Nodirbek Fazliddin o‘g‘li; 2) Vohidov Jahongir Tairovich; 3) Vohidov Shamsiddin Po‘lat o‘g‘li; 4) Sindarov Javohir Sanjarbekovich; 5) Yakubboyev Nodirbek Murodbek o‘g‘li.

Shu o‘rinda, Muhtaram Yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan “Zakovat”, “Yoshlar festivali” doirasida turli sport musobaqalari, intellektual o‘yinlar,

tanlovlardan, ko‘rgazmalar, madaniy tadbirlari g‘oliblari, “Mard o‘g‘lon” davlat mukofotini va “Kelajak bunyodkori” medallari misolida munosib rag‘batlantirilayotganligini alohida ta’kidlash joiz.

(Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari tomonidan Vatan mustaqilligini tarannum etuvchi she’rlar o‘qiladi)

1-boshlovchi: Muhtaram Prezidentimiz tomonidan 2022-yil “Inson qadrini ulug‘lash va faol mahalla yili” deb e’lon qilindi. Yurtboshimiz rahbarligida mamlakatimizda yoshlar uchun yaratilayotgan imkoniyatlar hayotning har jabhasida, xususan, xalqaro sport musobaqalari, fan olimpiadalarida, musiqa va san’at tanlovlarda sovrinli o‘rinnarni egallashiga sabab bo‘lmoqda.

Sharq donishmandlari aytganidek, “Eng katta boylik – bu aql-zakovat va ilm, eng katta meros – bu yaxshi tarbiya, eng katta qashshoqlik – bu bilimsizlikdir!”

2-boshlovchi: Zamonaviy O‘zbekistonda bugungi kunda ulug‘ allomalar - Mirzo Ulug‘bek va Muso Xorazmiy nomidagi iqtidorli bolalar maktablari, atoqli va mashhur adiblarimiz - Hamid Olimjon va Zulfiya, Erkin Voxidov, Abdulla Oripov, Ibroyim Yusupov, Ibrat, Muhammad Yusuf, Xalima Xudoyberdiyeva nomlari bilan atalgan ijod maktablari, “Temurbeklar maktabi”, Prezident maktablari, xususiy maktablar singari mutlaqo yangicha mazmun va shaklga ega bo‘lgan zamonaviy ta’lim muassasalari barpo etildi.

Shu sababli, barcha yoshlar uchun zamonaviy bilimlarni egallash, chinakam ma’rifat va yuksak madaniyat sohibi bo‘lish, bardavom hayotiy ehtiyojga aylanmoqda.

(Yuqori sinf o‘quvchilari ijrosida bitta qo‘sish va bitta raqs ijro etiladi)

1-boshlovchi: Hozir navbatni yangi o‘quv yilida mакtabga dastlabki qadamini qo‘yayotgan 1-sinf o‘quvchilarimiz hamda bitiruvchilarimizni tabriklash uchun so‘zni (ota-onalar, mahalla fuqarolar yig‘ini, hokimlik, sektor rahbarlari, sobiq bitiruvchilar va huquqni muhofaza qilish idoralari vakillari)ga beramiz, marhamat.

1. \_\_\_\_\_
2. \_\_\_\_\_

2-boshlovchi: Mana tadbirimiz ham o‘z nihoyasiga yetib bormoqda. Barchangizni maktab qo‘ng‘iroq‘i sadolari ostida 2022-2023-o‘quv yilining birinchi, ilk darsiga chorlab qolamiz. Aziz o‘quvchilar, sizlarga yangi o‘quv yilini a’lo baholarga o‘qib, Vatanimizning yanada rivojlanishi uchun o‘z hissasini qo‘sadigan dono farzandlar bo‘lib yetishingizni tilab qolamiz.

(Shundan so‘ng birinchi qo‘ng‘iroq chalinadi. Qo‘ng‘iroq chalinib bo‘lgandan so‘ng S.Nazarxonning “Ulug‘imsan Vatanim” qo‘sish‘i ostida o‘quvchilar o‘z sinf xonalariga sinf rahbarlari boshchiligidagi kuzatiladi)

E’tiboringiz uchun rahmat!

(Ssenariyga ijodiy yondashgan holda mahalliy shart-sharoitlardan kelib chiqib o‘zgartirishlar kiritilishi mumkin).